

**“TASDIQLAYMAN”**  
**Yoshlar ishlari agentligi**  
**direktorining birinchi**  
**o‘rinbosari – xarid**  
**komissiyasi raisi**



**J. Xodjayev**

Yoshlar ishlari agentligining elektron platformalarida foydalanish uchun  
SMS-xabarnoma xizmatini ko‘rsatish yuzasidan

**ENG YAXSHI TAKLIFLARNI TANLASH BO‘YICHA XARID QILISH**  
**HUJJATI**

**Toshkent 2022-yil**

## **VIII. BOB. YeTKAZIB BERILADIGAN ISH VA KO'RSATILADIGAN XIZMATLARGA NARX VA TEXNIK TALABLAR**

### **1. Umumiy ma'lumotlar**

1.1. To'liq nomi: Yoshlar ishlari agentligining axborot (elektron) tizimlari ([www.yoshlardaftari.uz](http://www.yoshlardaftari.uz), [www.yoshlarportali.uz](http://www.yoshlarportali.uz), [www.yoshlarforumi.uz](http://www.yoshlarforumi.uz) va boshqa tizimlar)da foydalanish uchun SMS-xabarnoma xizmatini ko'rsatish yuzasidan eng yaxshi takliflarni tanlash o'tkazish.

1.2. Buyurtmachi: **O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi.**

1.3. Xizmatlar ko'rsatish va ishlarni bajarish bo'yicha eng yaxshi taklif: **Buyurtmachi tomonidan o'tkazilgan tanlash natijalariga ko'ra aniqlanadi.**

1.4. Xizmat (ish)larning maksimal narxi: QQS bilan **90 000 000 (to'qson million) so'm.**

1.5. Bir dona SMS narxi **45 (qirq besh) so'm.**

1.6. Jami SMS soni: **2 000 000 (ikki million) ta.**

1.7. Xizmat ko'rsatish va ishlarni bajarish muddati: **70 kun.**

1.8. Moliyalashtirish manbalari: **Yoshlar ishlari agentligining Yoshlarga oid davlat siyosatini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan.**

### **2. Texnik talablar**

1. Xizmatning asosiy ish turi:

1.1. Yoshlar ishlari agentligining elektron platformalari([www.yoshlardaftari.uz](http://www.yoshlardaftari.uz), [www.yoshlarportali.uz](http://www.yoshlarportali.uz), [www.yoshlarforumi.uz](http://www.yoshlarforumi.uz) va boshqa tizimlar)ning foydanuvchilarining sms-ma'lumotnoma xizmati orqali xabardor qilish xizmatini amalga oshirish;

Yoshlar ishlari agentligi bitta kompaniya ko'rinishida xizmatni ko'rsatuvchi kompaniyadan 24 soat davomida texnik qo'llab-quvvatlash xizmatini olishi hamda ushbu xizmat o'z o'rnida barcha O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat yuritayotgan mobil operatorlari bilan ish yuritishi talab etiladi;

1.2. Buyurtmachining elektron platformalari foydalanuvchilarining so'roviga ko'ra abonentning mobil raqamiga sms u joylashgan joydan qat'iy nazar amalga oshirila olishi zarur. SMS so'rov yuborilgan davrda yetkazib berilmagan taqdirda (abonent xizmat doirasidan tashqari bo'lganida yoki telefon apparat ochirilgan bo'lsa) abonent xizmat doirasiga kirishi bilan yoki telefon yoqilganidan keyin yetkazib berilishi lozim;

1.3. Yoshlar ishlari agentligiga har bir yuborilgan smsni xolati yuzasidan (yetkazilganligi yoki yetkazilmaganligi) onlayn ravishda ma'lumot olib turishi kerak. Har bir yuborilgan sms to'g'risida onlayn ravishda ma'lumot ko'rib turish imkoniyati bo'lishi lozim;

1.4. Platforma 1 soniyada 50 ta smsdan 150 ta msgacha sms yuborish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim;

1.5. Sms yuboriladigan to'rt raqamlik qisqa raqam o'rniga, tashkilotimizni nomiga o'zgartirilgan bo'lishi lozim;

1.6. Buyurtmachining uskunolari sms uzunligi 160 simvoldan ko'proq bo'lgan taqdirda ikkita sms qilib jo'natishi lozim;

1.7. Yoshlar ishlari agentligining har bir elektron platformasi orqali yuborilgan sms soni va hisobotlarini istalgan paytda onlayn ravishda kuzatish imkoniyati bo'lishi lozim;

1.8. Yuborilgan elektron hisob-fakturalarga har bir elektron tizim orqali yuborilgan smslarni hisoboti qo'shib yuborilishi lozim.

**Yoshlar ishlari agentligining elektron platformalarida foydalanish uchun  
SMS-xabarnoma xizmatini ko'rsatish bo'yicha  
\_\_\_\_\_ -sonli SHARTNOMA**

**Toshkent shahri**

**2022 yil "\_\_\_\_"-oktabr**

Yoshlar ishlari agentligi (keyingi o'rinlarda "Buyurtmachi" deb yuritaladi) nomidan Nizom asosida ish yurituvchi, ijro etuvchi direktori A.Sa'dullayev bir tomondan va \_\_\_\_\_ (quyida matnda "Ijrochi" deb yuritiladi) nomidan Ustav asosida ish yurituvchi, direktori \_\_\_\_\_ ikkinchi tomondan, **Yoshlar ishlari agentligining elektron platformalarida foydalanish uchun SMS-xabarnoma xizmatini ko'rsatish loyihasini amalga oshirish** (keyingi o'rinlarda – Loyiha deb yuritiladi) ishlari bajarishga doir mazkur shartnomani tuzib imzoladilar.

**1. Shartnoma predmeti**

1.1. "Ijrochi" mazkur shartnomaning \_\_\_-ilovasida ko'rsatilgan loyihalar ro'yxatiga muvofiq xizmatlarni ko'rsatish (ishlarni bajarish) majburiyatlarini o'z zimmasiga oladi.

"Buyurtmachi" esa xizmatlarni qabul qilib olish va bajarilgan ishlar hamda ko'rsatilgan xizmat turlari uchun to'lash majburiyatini oladi.

1.2. Shartnomaning umumiy qiymati (*Tanlov komissiyasining 2022 yil \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_-son bayonnomasiga asosan*) \_\_\_\_\_ (\_\_\_\_\_million) so'mni tashkil etadi.

**2. To'lovlar va hisob-kitoblar**

2.1. "Buyurtmachi" "Ijrochi"ga:

shartnoma bo'yicha loyiha qiymatining 30 foizi \_\_\_\_\_ (\_\_\_\_\_million) so'm miqdorida mablag'ni oldindan o'tkazib beradi;

shartnomaning \_\_\_-ilovasi bo'yicha ishlar to'liq bajarilgandan so'ng loyiha qiymatining qolgan 70 foizi \_\_\_\_\_ (\_\_\_\_\_million) so'mni 5 (besh) ish kun ichida amalga oshiradi.

2.2. To'lov "Buyurtmachi" tomonidan davlat budjetidan ajratilgan mablag'lar hisobidan amalga oshiriladi.

**3. Ishlarni bajarish muddati**

3.1. "Ijrochi" ishlarni dastlabki avans to'lovi amalga oshirilgan kundan boshlab bajarishga kirishadi.

3.2. Mazkur shartnoma bo'yicha xizmatlar ko'rsatish va ishlarini bajarish muddati, ishlar boshlangan kundan boshlab mazkur shartnomaning \_\_\_-ilovaga muvofiq amalga oshiriladi.

**4. Shartnomaning amal qilish muddati va shartlari**

4.1. Shartnoma O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligidan ro'yxatdan o'tkazilgan kundan boshlab kuchga kiradi.

4.2. Shartnomani amal qilish muddati 2022-yil 31-dekabrgacha.

**5. Tomonlarning huquq va majburiyatlari**

**5.1. "Ijrochi"ning huquqlari:**

5.1.1. Shartnoma haqini to'lashni talab qilish.

5.1.2. Shartnoma shartlariga to'liq rioya etishni talab qilish.

5.1.3. Loyihaga oid takliflar berish va "Buyurtmachi"dan yakuniy qarorlarni talab qilish.

5.1.4. Barcha ish va xizmatlar doirasida yuzaga keladigan majburiyatlarni o'z kuchi va/yoki tashqi manbadan resurs (mutaxassis, texnika, autsorsing va h.k) jalb qilgan holda amalga oshirish.

**5.2. "Ijrochi"ning majburiyatlari:**

5.2.1. Ijrochi mazkur shartnoma shartlarini so'zsiz bajaradi.

5.2.2. Mazkur shartnomaning \_\_\_-ilovada ko'zda tutilgan ish hajmlarini o'z vaqtida to'liq va sifatli qilib bajarishi hamda bajarilgan ishlarni hisob-fakturasida ko'rsatishi lozim.

5.2.3. Shartnoma tasdiqlangan ilovaga muvofiq video materiallarni belgilangan vaqtda to'liq va sifatli topshiradi.

5.2.4. Barcha ishlarni mazkur shartnomada va uning 1-ilovasida belgilangan ishlarni bajarish jadvalida nazarda tutilgan hajm va muddatlarda, o'z kuchi va/yoki tashqi manbadan resurs (mutaxassis, texnika, outsorsing va h.k) jalb qilib belgilangan standartlarga amal qilgan holda sifatli bajarish hamda ishni "Buyurtmachi"ga mazkur shartnoma shartlariga muvofiq topshiradi.

5.2.5. "Buyurtmachi"ning talabiga muvofiq bajarilgan ishlar yuzasidan hisob-fakturasini "Buyurtmachi"ga taqdim qiladi.

5.2.6. Mazkur shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni barchasini bajarishni o'z zimmasiga oladi.

5.2.7. Ijrochi mazkur shartnoma bo'yicha barcha ishlarni o'z kuchi va/yoki tashqi manbadan resurs (mutaxassis, texnika, outsorsing va h.k) jalb qilgan holda bajarilishi yuzasidan "Buyurtmachi" oldida mulkiy javobgar hisoblanadi.

5.2.8. Bajarilgan va moliyalashtirish uchun qabul qilingan ish hajmlarida arifmetik xato yoki boshqa kamchiliklarga yo'l qo'yilganligi aniqlanganda, bajarilgan ish xajmlariga tegishli o'zgartirishlar (korrektirovka) kiritilgan holda rasmiylashtiriladi.

5.2.9. Ijrochi mazkur shartnomada ko'rsatilgan ishlarning barcha hajmini o'z kuchi yoki tashqi manbadan resurs (mutaxassis, texnika, outsorsing va h.k) jalb qilgan holda bajaradi.

### **5.3. "Buyurtmachi"ning huquqlari:**

5.3.1. Ishlar bajarilishi ustidan mazkur shartnomada qayd etilgan majburiyatlar va boshqa funksiyalarga rioya etilishini nazorat qilish;

5.3.2. Shartnoma shartlariga to'liq rioya etishni talab qilish;

5.3.3. Shartnomada ko'rsatilgan muddatda loyihani topshirishni talab qilish.

### **5.4. "Buyurtmachi"ning majburiyatlari:**

5.4.1. Shartnomada belgilangan miqdorda va muddatda shartnomaning \_\_\_-ilovasida nazarda tutilgan ishlarni qabul qilib olish va bajarganlik uchun "Ijrochi"ga haq to'lash;

5.4.2. Loyihadagi xato kamchiliklarni ular vujudga kelgan paytdan o'n kun ichida "Ijrochi"ga yozma ravishda ma'lum qilish;

## **6. Ishlarni topshirish va qabul qilish tartibi**

6.1. Bajarilgan ishlarni topshirish va qabul qilish davomida "Buyurtmachi"ning asosli e'tirozi bo'lsa, kamchiliklarning ro'yxati va ularni bartaraf etishning aniq muddatini belgilovchi ikki tomonlama dalolatnoma tuziladi.

6.2. Agar ishlarni bajarish jarayonida, keyinchalik uni davom ettirish maqsadga muvofiq emasligi ma'lum bo'lib qolsa, tomonlar 5 kun mobaynida bir-birlarini ishlar to'xtatilganligi haqida xabardor qilishlari shart va 10 kun mobaynida ishlarni davom ettirish uchun maqsadga muvofiq bo'lgan yo'nallishlarini oydinlashtiruvchi masalalarni qo'rib chiqishlari kerak. Ishlar to'xtatilgan hollarda tomonlar uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko'zda tutilgan majburiyatlar yuklatiladi.

6.3. O'zaro hisob-kitoblar qilishning muddati kelganligi, tomonlarning biri mazkur shartnomadagi ishlarni to'xtatish haqidagi yozma xabarnoma bergan sanadan hisoblanadi.

6.4. Bajarilgan ishlar (bosqichlar)da asosli kamchilik va nuqsonlar aniqlanganda "Ijrochi" ularni beg'araz bartaraf etadi.

## **7. Loyiha bo'yicha mualliflik huquqlari**

7.1. Mazkur shartnoma bo'yicha ish jarayonida hosil bo'lgan loyihaning mualliflik huquqi va huquqiy muhofazasi bilan bog'liq barcha masalalar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan tartibga solinadi.

7.2. "Ijrochi"ning xizmat ko'rsatish belgisi mijozning veb-saytida joylashtiriladi.

7.3. Loyiha "Buyurtmachi"ga sotish va loyihani ko'paytirish huquqi bilan topshiriladi.

## **8. Taraflarning javobgarligi**

8.1. "Buyurtmachi" loyihani qabul qilib olgan kundan boshlab 10 (o'n) kalendar kuni mobaynida loyihadagi semantik, orfografik va grammatik xatolarni, nosoz giperhavolalar, yuklanmayotgan rasmlar va boshqa xatoliklar mavjudligini tekshirib chiqishi va kamchilik yoki xatolik topilgan taqdirda "Ijrochi"ga xabar berishi lozim.

8.2. "Ijrochi" loyihadagi aniqlangan xatoliklarni o'z hisobidan 10 (o'n) ish kuni mobaynida

bartaraf etishi shart.

8.3. Mazkur shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlariga rioya qilmaganligi, "Buyurtmachi" tomonidan berilgan mablag'ni o'z vaqtida moliyalashtirmaganligi va shartnomada belgilangan boshqa majburiyatlarni buzganligi uchun "Buyurtmachi" "Ijrochi"ga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi. Penya to'lanishi "Buyurtmachi"ni shartnoma shartlari buzilishi tufayli yetkazilgan zararni qoplashdan ozod qilmaydi.

8.4. "Ijrochi" loyihani o'z vaqtida topshirish bo'yicha o'z majburiyatlarini buzganligi uchun "Buyurtmachi"ga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi.

8.5. "Buyurtmachi" tomonidan topilgan nuqsonlar va kamchiliklar o'z vaqtida bartaraf etilmaganligi uchun "Ijrochi" "Buyurtmachi"ga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun sifatsiz bajarilgan ishlar qiymatining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi. Penya to'lash "Ijrochi"ni ishlarni bajarishning kechikishi tufayli yetkazilgan zararlarni qoplashdan ozod qilmaydi.

8.6. Agar bajarilgan ishlar ushbu shartnomaning 1-ilovasiga muvofiq bo'lmasa, "Buyurtmachi" "Ijrochi"dan sifati zarur darajada bo'lmagan ishlar qiymatining 15 foizi miqdorida jarima undirish huquqiga ega.

8.7. Muddat o'tkazib yuborilganligi yoki majburiyatlarning boshqacha tarzda zarur darajada bajarilmaganligi uchun penya to'lash tomonlarni ushbu majburiyatlarni bajarishdan ozod qilmaydi.

8.8. Mazkur shartnoma bilan nazarda tutilmagan taraflarning javobgarligi O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

### **9. Bartaraf etib bo'lmaydigan kuch holati (fors-major)**

9.1. Agar tomonlar majburiyatni qisman yoki to'la ijro etmay qolishi tabiiy xodisalar, harbiy harakatlar va boshqa bartaraf etib bo'lmaydigan boshqa kuchlar sababli sodir bo'lgan bo'lsa, hamda bu holat mazkur shartnoma ijrosiga bevosita ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, tomonlar mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarining qisman yoki to'la ijro etilmay qolgani uchun javobgarlikdan ozod bo'ladilar.

9.2. Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarning ijro muddati bartaraf etib bo'lmaydigan vaziyat keltirib chiqargan oqibat hukm surgan vaqtga mos ravishda orqaga suriladi.

9.3. Agar bartaraf etib bo'lmaydigan kuch vaziyati yoki uning oqibatlari 3 oydan ortiq vaqtga cho'ziladigan bo'lsa, "Ijrochi" va "Buyurtmachi" ishlarni davom ettirish yoki noma'lum vaqtga to'xtatish uchun chora-tadbirlar ko'rishni muhokama qiladilar. Agar tomonlar ikki oy mobaynida bir to'xtamga kela olmasalar, tomonlarning har qaysisi shartnomani bekor qilinishini talab qilishga haqlidir.

### **10. Nizolarni hal etish tartibi**

10.1. Shartnoma tuzish, ijro etish, o'zgartirish va bekor qilish, shuningdek, keltirilgan zararni qoplash chog'ida tomonlar o'rtasida vujudga keladigan bahslar o'zaro muhokama qilinib kelishuvga erishish imkoniyati bo'lmagan taqdirda, qonunchilikda begilangan tartibda Toshkent shahar tumanlararo iqtisodiy sudi tomonidan ko'rib chiqiladi.

### **11. Korrupsiyaga qarshi shart**

#### **11.1. Tomonlar:**

Tomonlar, ularning affilangan (o'zaro bog'langan) shaxslari va xodimlari, ushbu Shartnomada bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishlari davomida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari talablarining buzilishiga olib keladigan yoki korrupsiya xarakteriga ega bo'lgan, shu jumladan (ammo bu bilan cheklanmay) pora berish yoki berishni va'da qilish, ta'magirlik, pora olishga bevosita yoki bilvosita rozi bo'lish xatti-harakatsizliklarni sodir yetmaydilar;

Tomonlar, ularning affilangan (o'zaro bog'langan) shaxslari va xodimlari boshqa tomonning xodimlari yoki vakolatli vakillarini qandaydir tarzda rag'batlantirishdan, shu jumladan pul summalari, sovg'alarni taqdim etish, ularning manziliga xizmatlarni beg'araz ko'rsatish yoki bu xodim vakolatlangan vakil tomonidan uni rag'batlantiruvchi tomon foydasiga qandaydir xatti-harakatlarni/harakatsizliklar bajarilishini ta'minlashga qaratilgan ishlarni bajarishdan voz kechadilar deb ma'lum qiladilar.

11.2. Tomonlar ushbu Shartnomaning 11.1-bandidagi talablarni buzib sodir yetganligi yoki sodir yetilishi mumkinligi to'g'risidagi shubhalar yuzaga kelgan holda, tegishli tomon bu haqida ikkinchi tomonni xabardor qilish, korrupsiya bilan kurashish sohasidagi O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarining normalari buzilganligi faktining rad etib bo'lmaydigan dalillari mavjud bo'lgan holda esa – amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda vakolatlangan organlarni ham xabardor qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

## **12. Shartnomani o'zgartirish va unga qo'shimchalar kiritish hamda bekor qilish tartibi**

12.1. Mazkur shartnomaga har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar ular yozma ravishda rasmiylashtirilgan va tomonlarning vakolatli shaxslari tomonidan imzolangan taqdirda haqiqiy hisoblanadi.

12.2. Shartnomani muddatidan oldin bekor qilishga taraflarning kelishuviga ko'ra, yetkazilgan zararni qoplash sharti bilan yo'l qo'yiladi.

12.3. "Ijrochi"ning aybi bilan ishlarning borishi to'xtab qolsa va ishlarning tugatilishi shartnomada belgilangan muddatdan kechiktirilsa, berilgan topshiriqda nazarda tutilgan ishlar sifati mavjud talablarga javob bermasa, "Buyurtmachi" shartnomani bekor qilishga haqli.

12.4. "Ijrochi"ga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra loyiha ishlari "Buyurtmachi" tomonidan bir oydan oshiq muddatga to'xtatilsa, "Buyurtmachi" loyihalash ishlarining haqini to'lash imkoniyatiga ega bo'lmasa, "Ijrochi" shartnomani bekor qilishga haqli.

12.5. Shartnomani bekor qilish haqida qarorga kelgan tomon ikkinchi tomonga 10 kun oldin yozma bildirishnoma yuboradi, ikkinchi tomon 10 kungacha e'tiroz bildirmasa shartnoma bekor qilingan hisoblanadi.

## **13. Shartnomaning alohida shartlari**

13.1. Mazkur shartnoma imzolangandan keyin, mazkur shartnomaga tegishli bo'lgan tomonlar o'rtasidagi barcha oldingi yozma va og'zaki bitimlar, yozishmalar, tomonlarning o'zaro kelishuvlari o'z kuchini yo'qotadi.

13.2. "Ijrochi" loyihani "Buyurtmachi"ning yozma ruxsatisiz, biron-bir uchinchi tomonga berish huquqiga ega bo'lmaydi.

13.3. Mazkur shartnomaga barcha o'zgartirish va qo'shimchalar, agar ular yozma shaklda rasmiylashtirilgan va tomonlar ularni imzolashgan bo'lsa, haqiqiy hisoblanadi.

13.4. "Buyurtmachi" bilan "Ijrochi" o'rtasidagi mazkur shartnomadan kelib chiqmaydigan yangi majburiyatlar paydo bo'lishiga olib keladigan har qanday ahdlashuvni tomonlar mazkur shartnomaga qo'shimchalar yoki o'zgartirishlar kiritish orqali yozma ravishda tasdiqlashlari kerak.

13.5. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan boshqa barcha hollar uchun amaldagi qonun hujjatlari normalari qo'llaniladi.

13.6. Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan 2 nusxada tuzildi.

## **14. Tomonlarning bank rekvizitlari va yuridik manzillari:**

### **"BUYURTMACHI"**

O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi  
markaziy apparati  
100011, Toshkent shahar, Navoiy ko'chasi, 11  
«Markaziy bank» Toshkent shahar  
Bosh boshqarmasi IFUT 84111,  
MFO 00014, STIR 207 323 290  
XS 23 402 000 300 100 001 010  
Moliya vazirligi g'aznachiligi  
amaliyot boshqarmasi  
G'azna XS 23 402 000 300 100 001 010  
"Markaziy bank" Toshkent sh. Boshqarmasi MFO 00014  
STIR 201122919

### **"IJROCHI"**

Direktor \_\_\_\_\_

Direktor \_\_\_\_\_ **A.Z.Sa'dullayev**

<p><b>“TASDIQLAYMAN”</b> Yoshlar ishlari agentligining 2022-yil _____dagi № _____-sonli shartnomaga _____ -ilova</p> <p>A.Z.Sa’dullaev _____ (imzo)</p>	<p><b>“KELISHILDI”</b></p>
---	----------------------------

**Yoshlar ishlari agentligining elektron platformalarida foydalanish uchun  
SMS-xabarnoma xizmatlar**

**RO‘YXATI**